



UDK: 372.857

Sojidadxon BAXROMBEKOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi  
E-mail: azimovasojidahon@gmail.com

Ijtimoiy fanlar fakulteti dotsenti G.Abdullayeva taqrizi asosida

## DIDACTIC CONDITIONS FOR ORGANIZING ECOLOGICAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES

Annotation

This article analyzes the didactic conditions for organizing environmental education based on national values from a scientific and pedagogical perspective. The study examines modern concepts of environmental education, their interrelation with national pedagogical heritage, and mechanisms for their integration into the educational process. It also highlights the role of folk pedagogy and national traditions in shaping ecological awareness and environmental culture.

**Keywords:** environmental education, national values, didactic conditions, ecological culture, folk pedagogy, sustainable development, pedagogical model.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье научно-педагогически проанализированы дидактические условия организации экологического образования на основе национальных ценностей. В исследовании освещены современные концепции экологического образования, их взаимосвязь с национальным педагогическим наследием и механизмы интеграции в образовательный процесс. Также обоснована роль народной педагогики и национальных традиций в формировании экологического сознания и культуры.

**Ключевые слова:** экологическое образование, национальные ценности, дидактические условия, экологическая культура, народная педагогика, устойчивое развитие, педагогическая модель.

## MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA EKOLOGIK TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida ekologik ta'limni tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik ta'limning zamonaviy konsepsiyalari, ularning milliy pedagogik meros bilan o'zaro aloqadorligi hamda o'quv jarayoniga integratsiyalash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xalq pedagogikasi va milliy an'analarning ekologik ong va madaniyatni shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, milliy qadriyatlar, didaktik shart-sharoitlar, ekologik madaniyat, xalq pedagogikasi, barqaror rivojlanish, pedagogik model.

**Kirish.** Zamonaviy global ekologik muammolar sharoitida ekologik ta'limni takomillashtirish masalasi alohida dolzarblilik kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi jarayonlar insoniyat oldida nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bu holat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning qayta ko'rib chiqilishini, ularni yangi qadriyatlar asosida tartibga solishni taqozo etadi. Natijada, ta'lim tizimida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish strategik ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Ekologik ta'lim mazmunini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Chunki insonning tabiatga munosabati, avvalo, uning madaniy merosi, axloqiy qadriyatlari va ma'naviy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir. Milliy madaniyat va an'analarda tabiatga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, uni asrash va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish g'oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ekologik ta'lim mazmunini shakllantirishda milliy qadriyatlar va umuminsoniy ekologik g'oyalarning uyg'unligi muhim pedagogik asos hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar masalasi chuqur falsafiy mazmunda yoritilgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy inson va tabiatning o'zaro bog'liqligi haqida fikr yuritir ekan, insonni tabiatning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi va uning tabiatni asrashdagi mas'uliyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson jamiyat taraqqiyotini ta'minlar ekan, tabiat bilan uyg'un munosabatni saqlashi zarur[1].

Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham tabiatni o'rganish inson kamolotining muhim sharti sifatida baholanadi. U tabiat hodisalarini bilish insonning intellektual rivojlanishi va dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilishini ta'kidlab, tabiatni anglash inson ma'naviy taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekanini qayd etadi[2].

Sharq mutafakkirlarining mazkur qarashlari inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy-axloqiy asosda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Bu g'oyalari ekologik ta'lim mazmunini shakllantirishda muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

G'arb falsafasida ham inson va tabiat munosabatiga oid muhim nazariy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Norvegiyalik faylasuf Arne Ness tomonidan ilgari surilgan "chuqur

ekologiya" konsepsiyasi insonni tabiatdan ustun mavjudot sifatida emas, balki biosferaning teng huquqli qismi sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson tabiatni faqat resurs manbai sifatida emas, balki mustaqil qiymatga ega tizim sifatida anglashi lozim.[3]

Shu nuqtayi nazardan ekologik ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligini ta'minlash o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv ekologik ta'lim mazmunini boyitish, o'quvchilarda ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni rivojlantirish hamda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, xalq an'analari yerga hurmat, suvni muqaddas bilish, daraxtni parvarishlash kabi qadriyatlar nafaqat amaliy faoliyat, balki axloqiy me'yor sifatida qaralgan. Bu esa ekologik tarbiyaning tarixiy ildizlari chuqur ekanini va uning milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, zamonaviy ekologik ta'lim tizimi ushbu boy ma'naviy merosga tayanib, uni didaktik jihatdan qayta ishlash va o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali yanada samarali natijalarga erishishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqot doirasida ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish masalasi bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim muammosi pedagogika, falsafa, ekologiya va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada joylashgan bo'lib, u ko'p qirrali yondashuvni talab etadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ekologik ta'limning nazariy asoslari keng yoritilgan. Xususan, J.Dewey ta'limni hayotiy jarayon sifatida talqin qilib, bilimlarning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi[4]. Ushbu yondashuv ekologik ta'limda tajriba va faoliyatga asoslangan metodlarning ustuvorligini belgilaydi. V.Sukhomlinskiy esa tabiatni shaxs tarbiyasining muhim vositasi sifatida ko'rib, uning estetik va axloqiy ta'sirini alohida ta'kidlaydi[5]. Bu esa ekologik tarbiyada hissiy va qadriyaviy komponentlarning muhimligini ko'rsatadi.

Ekologik falsafa doirasida Arne Naess tomonidan ilgari surilgan "chuqur ekologiya" konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, inson tabiatning bir qismi sifatida qaralib, barcha tirik mavjudotlar o'z-o'zidan qiymatga ega[6].

Ushbu yondashuv ekologik ta'limda biosentrik va ekosentrik qarashlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Mahalliy pedagogik adabiyotlarda ham ekologik tarbiya masalasi muhim yo'nalish sifatida o'rganilgan. A. Avloniy asarlarida tarbiya jarayoni insonning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq holda yoritilib, tabiatga munosabat axloqiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi[7]. Q. Hoshimov ekologik tarbiyani shaxs ma'naviy madaniyatining ajralmas elementi sifatida ko'rib, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi[8].

N.Saidkhonov esa ekologik ta'limni milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda o'rganib, ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq an'analari va urf-odatlarining muhim o'rin tutishini ilmiy asoslaydi.[9] Uning qarashlariga ko'ra, ekologik tarbiya samaradorligi milliy madaniy kontekstni hisobga olgan holda ta'limni tashkil etishga bog'liq.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili ekologik ta'limni samarali tashkil etish uchun ilmiy-nazariy asoslar yetarli darajada shakllanganini, biroq ularni milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qilishini ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqot murakkab pedagogik muammoni har tomonlama yoritish maqsadida integrativ metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-pedagogik, aksiologik, tizimli va madaniy-tarixiy yondashuvlarning o'zaro uyg'unligi ta'minlanib, har biri muammoning muayyan jihatini ochib berishga xizmat qildi.

Avvalo, qiyosiy-pedagogik yondashuv asosida turli pedagogik tizimlarda ekologik ta'limni tashkil etish tajribalari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali milliy va jahon

pedagogikasida ekologik tarbiya mazmuni, shakllari va metodlari solishtirilib, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Natijada ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari va samarali mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Aksiologik yondashuv tadqiqotning markaziy metodologik asosi sifatida ekologik ta'limni qadriyatlar tizimi bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Bu yondashuv doirasida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish jarayoni shaxsning axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlari bilan uzviy aloqada o'rganildi. Ekologik ta'lim faqat bilim berish emas, balki tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish jarayoni ekanligi ilmiy asosladi.

Tizimli yondashuv ekologik ta'limni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Ushbu yondashuv asosida ekologik ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va natijalari o'zaro bog'liq komponentlar sifatida tahlil qilindi. Tizimli yondashuv ekologik ta'limni bosqichma-bosqich va uzluksiz tashkil etish zarurligini asoslashga xizmat qildi hamda didaktik shart-sharoitlarni aniqlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Ekologik ta'limni samarali tashkil etishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili usulidan keng foydalanildi. Mahalliy va xorijiy pedagogik, falsafiy hamda ekologik yo'nalishdagi manbalar tizimli o'rganilib, muammoning o'rganilganlik darajasi aniqlashtirildi. Pedagogik konsepsiyalarni qiyoslash orqali ekologik ta'limga oid turli nazariy yondashuvlar solishtirilib, ularning samarali jihatlari umumlashtirildi. Nazariy model ishlab chiqish usuli esa ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishning konseptual asoslarini tizimlashtirish imkonini berdi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishda bir qator muhim didaktik shart-sharoitlar mavjudligini va ularning o'zaro uyg'unligi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatdi. Ushbu shart-sharoitlar ekologik ta'limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki qadriyatga yo'naltirilgan kompleks pedagogik tizim sifatida tashkil etish zarurligini asoslaydi.

Avvalo, ekologik ta'limning maqsadlari aniq, tizimli va qadriyatlariga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligi aniqlandi. Mazkur maqsadlar o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga qaratilishi zarur. Bunda ekologik ta'limning maqsadi faqat ekologik bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularni shaxsiy e'tiqod va hayotiy pozitsiyaga aylantirishdan iborat bo'lishi kerak. Shu jihatdan, ekologik tarbiya shaxsning axloqiy kamoloti bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar bilan boyitish ekologik ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida belgilandi. A.Avloniy ta'kidlaganidek, "tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot masalasi" [10], bu esa ta'lim mazmuniga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni chuqur singdirish zarurligini anglatadi. Milliy qadriyatlar orqali o'quvchilarda tabiatga nisbatan hurmat, mehr va mas'uliyat hissi shakllanadi. Shu bilan birga, xalq an'analari va urf-odatlar ekologik bilimlarni hayotiy mazmun bilan boyitib, ularni yanada tushunarli va ta'sirchan qiladi.

Uchinchidan, ekologik ta'lim jarayonida interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish zarurligi aniqlandi. J.Dewey tomonidan ilgari surilgan "education is not preparation for life; education is life itself" [11] g'oyasi ta'limning amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liqligini asoslaydi. Shu asosda ekologik ta'limda muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv, keys-stadi, munozara va tajribaviy faoliyat kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ekologik muammolarga ongli yondashuvni shakllantiradi.

To'rtinchidan, ekologik tarbiyaning amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi uning samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri ekanligi asosladi. Tabiatni bevosita kuzatish, ekologik loyihalarda ishtirok etish, maktab va mahalla miqyosida ekologik tadbirlar o'tkazish o'quvchilarda ekologik ko'nikma va

malakalarni shakllantiradi. Amaliy faoliyat orqali o'quvchilar ekologik bilimlarni real hayot bilan bog'laydi, bu esa ularning ekologik madaniyatini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, xalq pedagogikasi elementlaridan samarali foydalanish ekologik ta'limning tabiiy va ta'sirchan asosini tashkil etishi aniqlandi. Xalq an'analarida suvni asrash, daraxt ekish, yerga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ushbu qadriyatlar orqali ekologik tarbiya sun'iy emas, balki tabiiy va madaniy muhitda shakllanadi. Bu esa o'quvchilarda ekologik ongning barqaror va ichki ehtiyoj sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Natijada, ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etishning didaktik shart-sharoitlari o'zaro bog'liq va kompleks xarakterga ega ekanini aniqlandi. Ularning uyg'un holda qo'llanilishi ekologik madaniyatni shakllantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

**Muhokama.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning axloqiy pozitsiyasi, ekologik tafakkuri va madaniyatini ham kompleks ravishda rivojlantiradi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini faqat kognitiv faoliyat bilan cheklab qo'ymasdan, balki uni shaxsning ichki qadriyatlari, e'tiqodi va xulq-atvori bilan uzviy bog'laydi. Natijada, ekologik bilimlar amaliy hayotiy ko'nikmalarga va barqaror xulqiy me'yorlarga aylanadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi ekologik ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlar o'quvchilarga yaqin, tushunarli va hayotiy bo'lgani sababli ekologik mazmuni ichkilashtirishni osonlashtiradi. Umuminsoniy qadriyatlar esa ekologik muammolarning global xarakterini anglash, insoniyat oldidagi umumiy mas'uliyatni his etish imkonini beradi. Shu jihatdan, ekologik ta'limda lokal va global yondashuvlarning uyg'unligi zarur pedagogik shart sifatida qaraladi.

V. Sukhomlinskiy tabiatni tarbiya vositasi sifatida yuksak baholab, "tabiat -bu bola qalbini tarbiyalaydigan buyuk kitobdir"[12] deya ta'kidlaydi. Ushbu g'oya ekologik tarbiyada hissiy va estetik komponentlarning alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tabiat bilan bevosita muloqot qilish, uning go'zalligini his etish, tirik mavjudotlarga mehr bilan qarash o'quvchilarda ekologik ongning chuqur va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda hissiy-ta'sirchan tajriba nazariy bilimlardan kam ahamiyatga ega emas, aksincha, ularni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, muhokama natijalari ekologik ta'limda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvorligini ham ko'rsatadi. Faqat nazariy bilimlar bilan cheklanilgan ta'lim modeli o'quvchilarda barqaror ekologik xulqni shakllantirishda yetarli samara bermaydi. Aksincha, amaliy faoliyat -ekologik loyihalar, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar, kuzatish va tajribalar orqali o'quvchilar ekologik bilimlarni real hayot bilan bog'laydi. Bu esa ularning ekologik madaniyatini mustahkamlaydi.

Muhokama davomida yana bir muhim jihat aniqlandiki, ekologik ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan uning didaktik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Ya'ni, ta'lim jarayonida bilim (kognitiv komponent), qadriyat (aksiologik komponent) va faoliyat (praxelogik komponent) o'zaro uyg'un holda tashkil etilishi zarur. Ushbu uch komponentning integratsiyasi ekologik tarbiyaning kompleks va barqaror natijalarini ta'minlaydi.

Natijada, ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish, hissiy-estetik tarbiya elementlarini kuchaytirish va amaliy faoliyat bilan boyitish orqali zamonaviy pedagogik tizimda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali modeli yaratilishi mumkinligi asoslandi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va ta'lim jarayonining mazmunini hamda tarbiyaviy salohiyatini kengaytiradi. Bunday yondashuv ekologik ta'limni faqat bilim berish bilan cheklab qo'ymasdan, balki uni shaxsning ichki qadriyatlari, axloqiy pozitsiyasi va hayotiy qarashlari bilan uzviy bog'laydi. Natijada, o'quvchilarda ekologik ong, mas'uliyat va barqaror xulq-atvor shakllanadi.

Didaktik shart-sharoitlarning to'g'ri va ilmiy asosda belgilanishi ekologik madaniyatni shakllantirishning hal qiluvchi omillaridan biri ekanligi aniqlandi. Maqsadlarning aniq qo'yilishi, mazmunning qadriyatlar bilan boyitilishi, interfaol metodlardan foydalanish va amaliy faoliyatning tizimli tashkil etilishi ekologik ta'limning samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu komponentlarning uyg'unligi ta'lim jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurlashtiradi va uni o'quvchilar uchun yaqin hamda tushunarli qiladi. Ular orqali tabiatga nisbatan hurmat, ehtiyotkorlik va mas'uliyat kabi sifatlar shakllanadi. Xalq pedagogikasi esa ekologik tarbiyaning tabiiy va tarixiy asosini tashkil etib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ekologik tajribani ta'lim jarayoniga olib kiradi. Bu esa ekologik ta'limni sun'iy emas, balki tabiiy va hayotiy jarayonga aylantiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda. Ekologik madaniyatga ega shaxs tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi, resurslardan oqilona foydalanadi va ekologik muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. Bu esa jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlash va kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, ekologik ta'limni milliy qadriyatlar asosida tashkil etish nafaqat pedagogik samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatning ekologik barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi, mas'uliyatli va ongli shaxsni shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Forobiy, A.N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
2. Beruniy, A.R. (1968). Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan.
3. Naess, A. (1973). The shallow and the deep, long-range ecology movement: A summary. Inquiry: An Interdisciplinary Journal of Philosophy, 16(1-4), 95-100.
4. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
5. Сухомлинский, В. (1976). Сердце, которое я даю детям. Москва: Progress Publishers.
6. Naess, A. (1973). The shallow and the deep, long-range ecology movement: A summary. Inquiry: An Interdisciplinary Journal of Philosophy, 95-100.
7. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi.
8. Hoshimov, Q. (2005). Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan.
9. Saidkhonov, N. (2010). Ekologik tarbiya nazariyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
10. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi.
11. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
12. Сухомлинский, В. (1976). Сердце, которое я даю детям. Москва: Progress Publishers.